

# **«MAKTABGACHA TA'LIM KLASTERLARINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: XORIJ TAJRIBASI»**

## **XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI**

**22.11.2023 yil**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
SPORT FAOLIYATI VA PEDAGOGIK TA'LIM FAKULTETI  
MAKTABGACHA TA'LIM KAFEDRASI**

**«MAKTABGACHA TA'LIM KLASTERLARINI TASHKIL  
ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: XORIJ  
TAJRIBASI»**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN  
MATERIALLARI**

**«СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ОРГАНИЗАЦИИ  
КЛАСТЕРОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ:  
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ»**

**МАТЕРИАЛЫ  
НАУЧНО - ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ**

**«MODERN TRENDS IN THE ORGANIZATION OF  
PRESCHOOL EDUCATION CLUSTERS: FOREIGN  
EXPERIENCE»**

**MATERIALS**

**OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE**

**2023-yil 22-noyabr**

**BUXORO – 2023**

### **Ilmiy anjuman dasturiy qo‘mitasi**

- |                    |  |
|--------------------|--|
| 1. O.X. Xamidov    | – Universitet rektori, rais.   |
| 2. T.H. Rasulov    | – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais muovini.         |
| 3. F.N. Nurulloyev | – IT va IFR departamenti boshlig‘i, a’zo.                                  |
| 4. A.R. Hamroyev   | – Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi mudiri, p.f.d. (DSc), a’zo.                |
| 5. N.S. Hakimova   | – Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti, p.f.b.f.d.(PhD), a’zo.            |
| 6. A.Sh. Husenova  | – Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi, p.f.b.f.d.(PhD), a’zo. |
| 7. M.B. Sharipova  | – Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi, kotib.                        |

### **Ilmiy anjuman tashkiliy qo‘mitasi**

- |                   |  |
|-------------------|--|
| 1. T.H.Rasulov    | – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais.                 |
| 2. O‘.U.Rashidov  | – Moliya va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, a’zo.                      |
| 3. F.N.Nurulloyev | – IT va IFR departamenti boshlig‘i, a’zo.                                  |
| 4. A.R.Hamroyev   | – Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi mudiri, p.f.d. (DSc), a’zo.                |
| 5. R.A.Qo‘ldoshev | – Maktabgacha ta’lim kafedrasi mudiri, p.f.b.f.d.(PhD), a’zo.              |
| 6. M.M.Nigmatova  | – Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti, a’zo.                             |
| 7. Sh.Sh.Nizomova | – Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti, f.f.b.f.d.(PhD), a’zo.            |
| 8. N.N.Hamroyeva  | – Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti, f.f.b.f.d.(PhD), a’zo.            |
| 9. N.S.Hakimova   | – Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti, p.f.b.f.d. (PhD), a’zo.           |
| 10. A.Sh.Husenova | – Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi, p.f.b.f.d.(PhD), a’zo. |
| 11. M.B.Sharipova | – Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi, kotib.                        |

## **Adabiyotlar ro‘yxati:**

- 1.G.T Boymurodova, N Tosheva. Boshlang‘ich ta’limda bilish faoliyatini rivojlantiruvchi o‘quv vaziyatlarini tashkillashtirishda hamkorlikda o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. 2020
- 2.Boymurodova G. T. Particular Characteristics of Scientific Research Methods to Continuous Rising Qualification //Eastern European Scientific Journal. – 2017. – №. 5. – С. 29-34.
3. Boymurodova G. T. Development of Professional Competence in New Vocational Education //JournalNX. – С. 737-739.
- 4.Sh. Abdullayeva, D.A.Axatova Pedagogika. Toshkent. «Fan» 2004.- //b.

## **MAKTABGACHA TA’LIM YOSHDAGI BOLALAR IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH**

**Ergasheva Gulzoda Baxtiyorovna**

**Buxoro davlat universiteti, Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi**

**Yo‘ldoshev Muhabbat Mahmanazarovna**

**Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolda maktabgacha yoshidagi bolalarda ijodiy qobiliyat xususiyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishi, ijodiy qobiliyatlar rivojlanishi uchun zamin bo‘lgan sifatlarning mavjudligi va mustaqil fikrlash ko‘nikmasining taraqqiyoti bolaga ta’lim jarayonidagi turli vaziyatlarga muvaffaqiyatli moslashish, o‘zgargan holatlarni anglay olish hamda o‘zining bilish jarayonlari va xulq-atvorini unga mos tarzda yo‘naltira olish imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ijodiy qobiliyat, pedagogik faoliyat, kreativ shaxs, ijodiy, mustaqil fikrlash, ijodkor ijodiy qibiliyatlar, maktabgacha ta’lim tashkiloti.

**Abstract.** In this article, the importance of developing creative abilities in preschoolers, the presence of qualities that underlie the development of creative abilities and the development of independent thinking skills, help the child to successfully adapt to various situations of the educational process. about the possibilities of managing Zina's cognitive processes and behavior in the way that suits him.

**Keywords:** Creative ability, pedagogical activity, creative personality, creative, independent thinking, creative creative abilities, preschool organization.

Jamiyat taraqqiyotidagi islohotlar zamонавиу texnologiyaga bo`lgan talabni oshirib, uzluksiz ta`limning barcha bo`g`inlarida moddiy-texnik bazani yaxshilashga e`tibor qaratishda ijodiy yondashishni talab qiladi. Bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va yaxshilash hammaga ma'lum narsalarni o‘zgartira olishi va ijodiy foydalana bilish, sifat jihatdan yangiliklarni yaratish juda katta ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Bolaning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, albatta, uning bevosita faoliyatida namoyon bo‘ladi va rivojlanadi. K.Rodgers “Ijod – o‘z-o‘zini kuchaytirish demakdir” degan asarida, ijodiy shaxs uchun eng asosiy savollardan birini beradi: “Mening hayot tarzim o‘zimni qoniqtiradimi yoki to‘g‘ri talqin etadimi? Bolaning ushbu savolga javobi uning kasbiy va ijodiy cho‘qqilarga intilishi, yuqori ijodiy malakali va o‘zini ijodiy tomondan to‘la namoyish etishga intilishi kreativ shaxs bo‘lish” motivini uyg‘otadi. Har bir bolaning o‘zini-o‘zi rivojlantirishi va o‘zini-o‘zi namoyon eta olishi bevosita uning ijodiy qobiliyatiga egaligi bilan bog‘liq. Bola o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o‘ganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u astasekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bolalarning ijodiy qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun uzoq yillar davomida poydevor qo‘yiladi va ma'lum faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda bolaning o‘zini-o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Bola ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish,

shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Ijodiy intellektual qobiliyatlarning namoyon bo'lishi, hayot tajribasiga nimadir yangilik olib kirilishi, yangi muammolarni qo'yish va hal etishdagi betakror g'oyalarning tug'ilishi, muammoni hal etish va farazlarni shakllantirishda tafakkurning stereotip usullaridan voz kechish qobiliyati bo'lib ta'lim jarayoni samaradorligi ham ko'p jihatdan uning taraqqiyot darajasiga bog'liqdir. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda ham ularga xos bo'lgan ijodiy qobiliyat xususiyatlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanishi uchun zamin bo'lgan sifatlarning mavjudligi va mustaqil fikrlash ko'nikmasining taraqqiyoti bolaga ta'lim jarayonidagi turli vaziyatlarga muvaffaqiyatli moslashish, o'zgargan holatlarni anglay olish hamda o'zining bilish jarayonlari va xulq-atvorini unga mos tarzda yo'naltira olish imkonini beradi. Mutaxassislarning fikricha, bolalar ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin:

- ijodkor kishilar bilan muloqot ko'laming kengligi;
- taqlid uchun namuna bo'la oladigan kattalar olamining mavjudligi;
- ota-onva bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning demokratik uslubga ega ekanligi;
- bolaga hissiy jihatdan o'zini namoyon etish uchun imkoniyat berilishi;
- kattalarning faol va arboblarga xos maqomi;
- bolalarni mustaqil mehnatga erta jalb qilinishi;
- turli to'garaklarga jalb qilish orqali ijodiy faoliyatga yo'naltirish;
- o'z tajribasidagi yangi ma'lumotlarni bilishdan quvonishi;
- bolalarning tadqiqotchilik ishiga ijobiy munosabatda bo'lishi;
- bolalar faoliyatidagi yutuqlarni o'z vaqtida rag'batlantirish;
- intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish bo'yicha tegishli mashqlar bilan shug'ullanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish va boshqalar. Ijodiy qobiliyatning rivojlanishiga ijobiy ta'sir etuvchi omillar bilan bir qatorda uning taraqqiyotiga salbiy ta'sir etuvchi holatlar ham mavjud.

Ota- onalarga tavsiyalar:

- bolangizning dunyoqarashini boyitish, ijodiyni rivojlantirish maqsadida ko'proq har xil voqealarga boy kitoblarni o'qib bering;
- o'zingizning kasbingiz haqida gapirib bering va ishxonangizga sayrga olib boring, kasb tanlash ehtiyoji tug'iladi;
- bolangizni tez-tez sayrlarga olib chiqing, ijodiy rivojlanadi;
- sayr vaqtida tabiatdagi ranglar, predmetlar va hayvonot dunyosi haqida to'liq tushuncha bering, ekologik tarbiyasi oshadi;
- bolangiz savol bersa urushmang, savollariga to'liq javob bering, ongi o'sadi;
- bolangizni mustaqil ish qilishga o'rgating, u katta bo'layotganini his qilsin;
- bolangizga oilasini sevishga, ardoqlashga o'rgating, zero Vatan ostonadan boshlanadi; Shunday qilib, bolalar ijodiy qobiliyatlarini uning ijtimoiy-psixologik taraqqiyoti mahsuli bo'lib, muntazam o'zaro ta'sir etib boruvchi ko'plab omillarning inson ruhiyatiga ta'siri natijasi hamda ta'limga pedagogikpsixologik tayyorlikning eng muhim ko'rsatikichidir. Ijodiy rivojlantirish omillari bolaning ijodiy faoliyatida ijodiy intilishi, ijodiy qobiliyati, ijodiy qobiliyat maqsadi, yo'nalishi va o'zini boshqara olishida ko'rindi va uni o'zining faolligi, o'zini-o'zi boshqara olishi bilan yetuk rivojlanayotgan, o'sayotgan shaxsga aylanayotganini bildiradi. Xulosa qilib aytganda, ta'limda ijodiy qobiliyat shunchaki bir ehtiyoj emas, balki uning avangardidir: boshqa har qanday tizim deyarli har doim shu qadar ko'p yangilik va tajribalar bilan o'zining progressiv rivojlanishi haqiqatini tasdiqlay olmaydi. Ta'limning jamiyatdagi o'zgaruvchan roli ko'plab ijodiy tafakkur sohiblariga va innovatsion jarayonlarga olib keldi.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1.Рахимов Ф. Б., Шарипова М. Б. МЕСТО ИННОВАЦИЙ В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ПРОБЛЕМ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ //Academy. – 2020. – №. 5 (56).

2.Шарипова М. Б., Садуллоева М. Б. К. ПРОФЕССИЯ «УЧИТЕЛЬ» И ЕЁ РОЛЬ В ОБЩЕСТВЕ //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 1 (46)

3.Шарипова М. Б., Мустакимова Г. А. Наследие мыслителей в эстетическом воспитании учащихся начальной школы //Вестник магистратуры. – 2019. – №. 10-5. – С. 48-49.

4.Sharipova M. B., Nizomova S. S. THE ARTISTIC IMAGE OF THE IMAGE OF "WATER" IN THE POEM //УЧЕНЫЙ XXI BEKA. – 2018. – №. 11. – С. 75.

## **МАКТАБГАЧА ЙОШДАГИ БОЛАЛARGА HUQUQIY TARBIYA BERISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

**Fayzullayeva Nozima Nutfillo qizi  
Jizzax davlat universiteti talabasi**

**Annotatsiya:** Dini, tili, millatidan qati nazar uning huquq va erkinliklar kafolatlangaligi haqida . Mana shu nuktai nazardan kelajak avlodning huquqiy savodxonligini oshirish yo‘lidagi islohatlar, tadbirlar, tushuncha va maslahatlar berib o‘tilgan. Yosh avlodni erkin va demokratik, insonparvarlik ruhida tarbiyalash yo‘lida qator tafsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** demokratik. huquq. erkinlik, majburiyat, insonparvarlik, vatanparvarlik, konstitutsiya, konvensiya.

**Аннотация:** Данная статья посвящена защите прав и свобод детей. О гарантии прав и свобод ребенка независимо от происхождения, происхождения, расы, вероисповедания, языка, национальности. Именно в этом контексте предстаиваются реформы, меры, идеи и советы для повышения правовой грамотности следующего поколения. Дан ряд рекомендаций по воспитанию подрастающего поколения в свободном и демократическом, гуманном духе.

**Ключевые слова:** демократический. закон свободы, обязанность, человечность, патриотизм, конституция, условность. ратическом, гуманном духе.

**Absract:** This article is dedicated to the protection of children's rights and freedoms. About the guarantee of the rights and freedoms of the child, regardless of his origin, lineage, race, religion, language, nationality. It is in this context that reforms, measures, insights and advice are provided to improve the legal literacy of the next generation. A number of recommendations have been made to educate the younger generation in a free and democratic, humane spirit.

**Keywords:** democratic. law freedom, obligation, humanity, patriotism, constitution, convention.

Yosh avlodni erkin, demokratik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni komil inson ruhida o‘stirish va ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish va ta’minlab borish fuqarolik jamiyatiga asoslangan demokratik, huquqiy davlatni qurishni o‘z oldiga maqsad qilib olgan har bir jamiyat uchun juda ham muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Barcha demokratik davlatlar kabi, mazkur masala, ya’ni yosh avlodni tarbiyalash, aholida esa bola huquqlari sohasidagi huquqiy madaniyatni shakllantirish masalasi, O‘zbekiston uchun ham muhim va dolzarb masala hisoblanadi. Mamlakatda yoshlar masalasi, ularning o‘z fuqarolik pozitsiyasiga ega inson sifatida tarbiyalash, ularning huquq va erkinliklarni, qonuniy manfaatlarini ta’minlash masalalariga mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalish sifatida katta e’tibor qaratib kelinmoqda. Mustaqilligimiz endi e’lon qilingan paytlari, ya’ni 1991-yilning 20-novabrida, “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi maxsus qonuni qabul qilinganligi bunga yaqqol dalil bo‘la oladi. Mazkur Qonunda yoshlarga oid siyosatning maqsadi, O‘zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari, yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi qonunlarning mazmun-mohiyati qanday bo‘lishi lozimligi, bu boradagi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari normalarining ustuvorligi tamoyili ko‘rsatib o‘tilgan. Bu esa, yoshlar siyosati masalasi 1992-yilgi mustaqil O‘zbekistonning Konstitutsiyasida o‘z aksini topishiga, shu yili O‘zbekistonning BMTning asosiy hujjatlaridan biri hisoblanmish “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyaga qo‘shilishiga va mazkur hujjatlar asosida o‘tgan davr mobaynida bolalar va yoshlar masalalariga dahldor 100 dan ortiq qonunlarni qabul qilinishi hamda 2008-yilda, bu sohadagi maxsus qonun hisoblangan

Kasimov Asror Abdulloyevich. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING DARS DAN TASHQARI MASHG'ULOTLAR JARAYONIDA IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH .....	59
Xayrullayeva Dilnoza Nurmat qizi. BOSHLANG'ICH SINF DARSLARIDA ETNOPEDAGOGIKA NAMUNALARINING YORITILISHI.....	63
Nasimova Nasiba Qurbon qizi. MAK TABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARD A TAYANCH KOMPETENSIYALARINING SHAKLLANISHI VA KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUVNING AHAMIYATI .....	66
Jumayeva Habiba G'aforovna. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING IJODIY QOBILYATINI RIVOJLANTIRISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI .....	67
Ergasheva Nilufar Erkin qizi. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA PSIXOLOG KASBIY FAOLIYATINING ILMIY -NAZARIY METODOLOGIK MUAMMOLARI .....	71
Jo'rayeva Zarina Muxtorovna. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI YOZUVGA O'RGA TISHNING METODIK ASOSLARI .....	73
<b>3 – SEKTOR: MAK TABGACHA TA'LIM KONSEPSIYASIDA XALQARO VA XORIJ TAJRIBALARIDAN FOYDALANISHDA KREATIV YONDASHUV .....</b>	<b>77</b>
Nigmatova Mavjudha Maxmudovna, Qurbonova Dilnoza Sadreddinovna, Sayfullayeva Mohinur Mustafoyevna. YEVROPA MAMLAKATLARIDA MAK TABGACHA TA'LIM VA UNING AHAMIYATI.....	77
Mirzayeva Dilfuza Shavkatovna. TALABALAR IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA ART-PEDAGOGIKANING AHAMIYATI .....	80
Umedjon To'raqulovich Jumayev. MAK TABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARINING KREATIV TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH METODLARI.....	83
Rajabova Iroda Hamidovna, Nuriddinova Sevara, Bahri ddinova Gulnora. ATROF – OLAM BILAN TANISHTIRISH MASHG'ULOTLARIDA MAK TABGACHA YOSH DAGI BOLALARDA OILAGA NISBATAN MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH.....	85
Eshova Dilbar Shonazarovna. TASVIRIY FAOLIYAT- BADIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH ASOSI .....	87
Oygul To'raeva. MAK TABGACHA TALIMDA BOLALARNI TADBIR KORLIK FAOLIYATIGA YO'NALTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	90
Barotova Dilnoza O'tkir qizi. MAK TABGACHA TA'LIM YO'NALISHIDAGI BOLALARINING IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH.....	94
Ergasheva Gulzoda Baxtiyorovna, Yo'ldoshev Muhabbat Mahmanazarovna. MAK TABGACHA TA'LIM YOSH DAGI BOLALAR IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH .....	96
Fayzullayeva Nozima Nutfillo qizi. MAK TABGACHA YOSH DAGI BOLALARGA HUQUQIY TARBIYA BERISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....	98
Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna, Hamroyeva Lobar Olimjonovna. MAK TABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA SAHNALASHTIRISH, O'YIN FAOLIYATINI TASHKIL ETISH YO'LLARI .....	102
Komilova Dilnoza Akram qizi. MAK TABGACHA YOSH DAGI BOLALARGA TA'LIM BERISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDOSHUV .....	105
Yunusova Dilfuza Norboyevna. MAK TABGACHA TA'LIM YOSH DAGI BOALAR DA OG'ZAKI NUTQ KO'NIKMALARINI SHAKLLANIRISHNING AHAMIYATI.....	107
Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna, Ahrorova Aziza Anvar qizi. MAK TABGACHA TA'LIM YOSH DAGI BOLALARINING IJODIY QOBILIYATLARI VA UNI SAMARALI RIVOJLANTIRISH OMILLARI .....	109
Musayeva Shoxsanam. MAK TABGACHA YOSH DAGI BOLALARGA ESTETIK TARBIYA BERISHDA MUSIQANING O'RNI .....	112
Камилова Гулмира Алимовна. МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КРЕАТИВ ЁНДАШУВ.....	114